

**ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA KONSEPTNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI**

Yandashova Dilniso Shavkat qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Oripov ijodi orqali vatan,baxt,g'am konseptlarining antroposentrik tadqiqi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Lingvokulturologiya, kognitivlik, konsept, freym*

Annotation: *This article discusses the anthropocentric study of the concepts of homeland,happiness and sorrow through the work of Abdulla Oripov.*

Key words: *Linguistic culture, cognition, concept, frame.*

Аннотация: В статье рассматривается антропоцентрическое исследование концептов Родины счастья и печали через творчество Абдуллы Орипова.

Ключевые слова: языковая культура, познание, концепт, фрейм.

Bizga ma'lumki,barcha fan sohalari qatori bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik ham rivojlanib kelmoqda.Tilshunoslikning lungvokulturologiya,kog nitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokognitologiya, sotsiolingvistika kabi yo'nalishlari bugungi kunda oliv ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'rganilayotgani hamda tilshunoslikka yangicha atama va terminlarning kirib kelishi bugungi kunda o'zbek tilimizning bir joyda qotib qolmayotganligi va yo'qolib ketmasligi uchun ulkan qadam desak yanglishmaymiz.Kognitiv tilshunoslikda „kognitiv”atamasining izohi „inglizcha”-cognitive-bilishga oid”so'zi bilan bog'liq hisoblanadi.Konsept,sse nariy,kognitsiya,freym atamalari kognitiv lingvistikating markaziy tushunchalari dir.Shu o'rinda konsept bizga ma'lumki,bilimlar majmuyi hisoblanadi.Badiiy adabiyotimizda shunday o'lmas durdonalar borki,ularda konsept ko'rinishlari nihoyatda mohirlik bilan,kitobxonni o'ya toldiradigan darajada ifoda etilgan.Shun day badiiy durdona lirkalarimizning mualliflaridan biri bu Abdulla Oripov hisoblanadi.1964 yilda o'zbek she'riyatiga „Mitti yulduz” to'plami bilan kirib kelgan buyuk shoir ham Abdulla Oripov edi.To'plam turkumidagi bir she'r nomi bilan atalgan.Kitob chiqishi bilan qo'lma-qo'l bo'lib,o'z kitobxonlariga ega bo'lgan.Shu o'rinda to'plamdag'i „Mitti yulduz” she'riga diqqat qilaylik.Sher o'n ikki satrdan iborat:

Ko'k gumbazin bir chetida,
Bo'shilqlarga urib bosh
Miltiraydi mitti yulduz,
Tanholikdan to'kib yosh.

Atrofida na bir yulduz
Na bulut bor,na tuman
Yulduzlarga termulib u,
Titrab turar shamsimon

Eh,bechora,yashash nechun,
Yashnamasang,kulmasang.

O'z to'dangdan nega uchding,

Qaytish yo'lin bilmasang?!

She'rning boshlanishi qanchalik shoirning so'zga chechanligi kuchliligidan dalolat nazarimda.Yulduz gumbazning bir chetida yolg'izlikdan azib chekib yig'la shi,yulduzlardan,o'z to'dasidan yiroqda bo'lismiga qaramay uning xira miltillashdan to'xtamagani,unga achinib boqqanlarga esa hech qachon to'dangdan ajralma deya miltirashi bu bir insonning kichik taqdiriga o'xshatish mumkin.atrofida na bir yulduz,na bulut yo'qligi uning g'amga botganligiga bir sabablardan biri sifatida ko'rsatilgan.Sherda shoir g'am konseptini mohirlik bilan qo'lla gan.Shoirning ijodida bu kabi insonni mushohada qilishga undaydigan she'rlar talaygina.Shulardan yana biri „Tilla baliqcha”she'ri hisoblanadi.

Tuxumdan chiqdi-yu,keltirib uni

Shu loyqa hovuzcha tomon otdilar.

Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,

Xoru xas,hazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha

Va mudroq tollarning achchiq hazoni

Menga alam qilar,tilla baliqcha

Bir ko'lma hovuz deb bilar dunyon...

Ushbu she'r 1965 yilda yozilgan.Ayni vatanimiz erk,qudrat,mustaqillik kabi keng tushunchalarini anglashdan uzib qo'yilgan vaqtida alam bilan dunyoga kelgan ushbu she'r.Bu yerda tilla baliqchaga emas,balki keng dunyodan uzib qo'yilgan,bebaho merosi,buyuk ajdodlari-yu avlodlari bo'la turib ularni o'zligini anglashdek buyuk baxtdan majburan uzib qo'yilgan xalqqa rahmingiz keladi.Sherda g'am konsepti o'tkir afsus va nodomatlar bilan sezilib turadi. Oddiygina „Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni”misrasiga nazar solsak,o'tmishimizning naqadar mudhish bo'lganligini shu bir misrada anglab olishimiz qiyin emas. Xalq yashar ekan,adabiyot o'lmaydi degan gaplarga ko'zim tushgandi qayerdadir. Haqiqatdan ham,inson mavjud ekan hayot davom etaveradi,badiiy adabiyot gullab yashnashi uchun esa bizga Abdulla Oriovdek buyuk iste'dod egalari kerak.Shoir 1967 yili bitgan qustyidagi sakkiz misralik she'rida baxt konseptining ifodalishiga diqqat qilaylik:

O'zimni moziyning bag'riga urdim,

Vas shu on shukrona aylib qaytdim men.

Kimdir ko'rmay ketgan baxtni men ko'rdim,

Kimdir aytmay ketgan so'zni aytdim men.

Neni kutayotir ajib kelajak,

U mening iqbolim,mening baxtimdir.

Men ko'rmanган baxtni kimdir ko'rajak.

Men aytmagan so'zni aytajak kimdir.

Shoirning kamtarinligiga qoyil qolmay ilojingiz yo'q.Qo'liga qalam tutgan borki,bu misralarning bir tomondan qanchalik quvonch bilan ikkinchi tomondan esa umid bilan yozilganini sezadi albatta.Abdulla Oriov ijodi shunday, har bir misraning ma'nosini tushunish uchun go'yoki uning ichiga sho'ng'ib ketas an kishi.Ba'zida ko'zimizga yosh

olib,ba'zida esa kulgu va quvonch bilan mutolaa qilamiz she'rlarini.Yuqorida keltirib o'tganlarimdan „Tilla baliqcha” she'ri orqali shukronalik hissi jo'sh urdi shaxsan mening ichimda.Vatanni kuylamoq bu har bir ijod ahli borki,she'riyatining asosiy mavzusi bo'lib ona vatanni kuylaydi.Shu o'rinda Abdulla Oripovning „Men nechun sevaman O'zbekistonni” she'riga to'xtalib o'tsak:

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo
Nechun vatan deya yer-u osmonni
Muqaddas atayman,atayman tanho.

Yuqoridagi she'rni yod olmagan birorta kitobxon yo'q nazarimda.Ushbu she'rda vatan konsepti shu qadar kamtarinlik bilan ifoda etilganki,shoir oddiy so'zlardan ulkan ma'no chiza olgan nazarimda.

Xalqim,tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsaydi,
Mexrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Agarda vatanim sen qorliklarni makon etgan bo'lganingda ham,tarixning hukmi bilan muzliklardan iborat bo'lganingda ham mehrim berardim,o'sha muzliklarni senga bo'lgan mehrim bilan eritardim deya baralla ayta olgan,she'r yaratilgan davrni hisobga olsak shu qadar buyuk jasorat egasi edi Abdulla Oripov.Xalqimiz ning,vatanimizning bardavom kelajagini,nurli istiqbolini oldindan ko'ra olgan,buni har bir misrasi orqali xalqi ongiga singdirmoqchi bo'lgan favqulorra buyuk qalb sohibi edi Abdulla Oripov.,„Men nechun sevaman O'zbekistonni” she'ri bundan necha yillar ilgari yozilgan.U davrda O'zbekistonning paxtasi uchun,oltini uchungina „hurmat”qilishgan.Lekin faqatgina chinakam farzandlargina vatanni hech narsasisiz sevishi,ardoqlashi mumkin.Bizga ma'lumki dunyo yaralibdiki, ezbilik, yomonlik, haqiqat, yolg'on, xasislik, ko'ngli ochiqlik kabi lar yonma-yon keladi. Abdulla Oripov ijodida ham shunday illatlarga misralar nihoyatda mohirlik bilan yozilgan:

Deydilar:it hurur,o'tadi karvon,
Ranj-u balolardan yonmasin joning.
Lekin alam qilar bir umr giryon,
Itlar orasida o'tsa karvoning.

Deb yozgan edi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki,yuqorida aytib o'tilgan vatan,baxt,g'am kabi konseptlar orqali shoir o'z kitobxonlariga nima bo'lishidan qat'i nazar dunyoda hech qachon qiymati kamaymaydigan narsalar mavjudligi,shulardan biri bu vatan,ona hisoblanishini uqtirgandek bo'ladi go'yo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.Safarov „Kognitiv lingvistika”Jizzax-2006
- 2.Mahmudov N „Til tilsimi tadqiqi”Toshkent.,„Mumtoz so'z”2017
- 3.A.Oripov Tanlangan asarlari (2000-2016).
- 4.A.Oripov Saylanma 2007